



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRINING BUYRUG‘I

2026_yil “30” mart

№ 106

Toshkent sh.

Davlat tibbiyot muassasalarida besh kunlik ish haftasini tashkil etishning vaqtinchalik tartibini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini qo‘llab-quvvatlash choralari to‘g‘risida”gi 2025-yil 9-noyabrdagi PQ-336-son qaroriga muvofiq **buyuraman:**

1. 2026-yil 1-apreldan boshlab barcha davlat tibbiyot muassasalarida ish vaqti rejimi besh kunlik ish haftasi tartibiga o‘tkazilsin.

2. Davlat tibbiyot muassasalarida besh kunlik ish haftasini tashkil etish to‘g‘risida vaqtinchalik tartib **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Mazkur buyruq bilan tasdiqlangan tartibga muvofiq **davlat tibbiyot muassasalari rahbarlari:**

xodimlarni mehnat shartlarining o‘zgarishi haqida qonunchilikda belgilangan tartibda va muddatlarda ogohlantirilishini ta’minlasin;

ichki mehnat tartibi qoidalari, ish vaqti rejimi va ish jadvallariga oid ichki hujjatlarni qayta ko‘rib chiqsin va buyruq bilan tasdiqlasin;

kasaba uyushmasi qo‘mitasi bilan kelishuv talab etiladigan hollarda tegishli kelishuvlarni (jamoat shartnomasi va boshqa turdagi lokal hujjatlar) rasmiylashtirish chorasini ko‘rsin;

ambulator xizmat ko‘rsatuvchi davlat tibbiyot muassasalarida bayram va dam olish kunlari ish faoliyatining uzluksizligini ta’minlash uchun moslashuvchan ish jadvali asosida amaldagi mavjud shtat birliklari doirasida qonunchilik hujjatlariga muvofiq navbatchilik tashkil etilishini ta’minlasin.

Iqtisodiyot va moliya vazirligining Axborot texnologiyalar markazi bilan hamkorlikda UzASBO-2 dasturida xodimlarning ish vaqti rejimini to‘g‘ri aks etirilishi va yuritilishi yuzasidan zarur choralarni amalga oshirsin.

4. Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi (Z.Ermatov) Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti (A.Alijanov) va Moliya iqtisod boshqarmasi (O.Safarov) bilan birgalikda **bir hafta muddatda** bayram va dam olish (yakshanba) kunlari uyda vafot etganlarga o'lim haqidagi tibbiy guvohnomalarni rasmiylashtirish uchun jalb etiladigan tibbiyot xodimlari mehnatiga haq to'lash bo'yicha takliflarni Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasining Kuzatuv kengashiga kiritilishini ta'minlasin.

5. **Inson resurslari rivojlantirish va boshqarish bo'limi (O.Sultonov)** Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti (A.Alijanov) bilan birgalikda mazkur buyruqni tibbiyot muassasalariga yetkazsin hamda mazmun-mohiyati bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borsin.

6. Sog'liqni saqlash vazirining 2025-yil 15-avgustdagi 254-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oilaviy poliklinikalarda tibbiyot xodimlarining navbatchiligini tashkil etish tartibi"ga **2-ilovaga** muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

7. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Vazir



A. Xudayarov

**Davlat tibbiyot muassasalarida besh kunlik
ish haftasini tashkil etish to'g'risida
VAQTINCHALIK TARTIB**

1. Ushbu Tartib O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi davlat tibbiyot muassasalarining besh kunlik ish haftasi rejimida faoliyat yuritish tartibini belgilaydi.

2. Davlat tibbiyot muassasalari 2026-yil 1-apreldan boshlab ish vaqti rejimi besh kunlik ish haftasi asosida ish faoliyatini amalga oshiradi. Bunda qonunchilik hujjatlariga muvofiq:

tibbiyot xodimlari uchun haftalik ish vaqtining normal davomiyligi **ko'pi bilan 36 soatdan ortiq** bo'lmaydi;

alohida xususiyatga ega bo'lgan ishlardagi hamda o'ta zararli va o'ta xavfli mehnat sharoitlaridagi ishlarda band bo'lgan **tibbiyot xodimlariga** nisbatan **ish vaqtining cheklangan davomiyligi muddatlari** tatbiq etiladi;

ishi yuqori darajadagi ruhiy, aqliy va asabiy zo'riqish bilan bog'liq bo'lgan, ya'ni alohida xususiyatga ega bo'lgan **boshqa toifadagi xodimlar uchun** haftalik ish vaqtining normal davomiyligi **ko'pi bilan 36 soatdan ortiq** bo'lmaydi;

tibbiyot xodimi toifasiga kirmaydigan xodimlar uchun haftalik ish vaqtining normal davomiyligi **40 soatni** tashkil etadi.

3. Ko'p tarmoqli markaziy poliklinika (aholi birlashtirilgan), oilaviy poliklinika va oilaviy shifokorlik punktlarida ish vaqti **dushanba-juma kunlari soat 8:00 dan 20:00 qadar** muddat oralig'ida tashkil etiladi. Bunda:

a) tibbiyot xodimlarining kunlik ish vaqtlari kasaba uyushmasi bilan kelishgan holda jamoa shartnomalari hamda ichki mehnat tartib qoidalarini belgilovchi hujjatlarda belgilanadi;

b) aholiga uzluksiz tibbiy xizmat ko'rsatilishini ta'minlash maqsadida **dam olish (shanba) kunlari soat 8-00 dan 14-00 ga qadar belgilangan tartibda ish haqi to'lanadigan 1 nafar shifokor va 1 nafar o'rta tibbiyot xodimining navbatchiligi** tashkil etiladi.

4. Tajriba-sinov tariqasida sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli joriy qilingan hududlardagi birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida ish vaqti **dushanba-juma kunlari soat 08-00 dan 16-00 gacha** etib belgilanadi. Bunda:

2-tip oilaviy poliklinikalarda **dushanba–juma kunlari 16-00 dan 20-00 gacha**, shuningdek, **dam olish (shanba) kunlari 08-00 dan 14-00 gacha** belgilangan tartibda ish haqi to‘lanadigan bir nafardan shifokor va o‘rta tibbiyot xodimidan iborat navbatchilik tashkil qilinadi.

2-tip oilaviy poliklinikalarining navbatchi tibbiyot xodimlari 1-tipdagi oilaviy poliklinikalar va oilaviy poliklinika filiallari aholisiga ham tibbiy xizmatlar ko‘rsatadi.

5. Barcha birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida tashkil etiladigan navbatchilik sog‘liqni saqlash vazirining 2025-yil 15-avgustdagi 254-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oilaviy poliklinikalarda tibbiyot xodimlarining navbatchiligini tashkil etish tartibi”ga asosan amalga oshiriladi.

6. Har bir xodimning olti kunlik ish haftasi davomidagi mehnat faoliyati bilan bog‘liq ish yuklamasi hamda amaldagi oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlari miqdori qonunchilik hujjatlariga muvofiq davlat tibbiyot muassasalarining besh kunlik ish haftasi rejimida to‘liq saqlanadi va uning oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlari miqdori kamaytirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

7. Davlat tibbiyot muassasalari ish vaqtining besh kunlik ish vaqti rejimiga o‘tishda kasaba uyushmasi bilan kelishgan holda jamoa shartnomalari hamda ichki mehnat tartib qoidalari qayta rasmiylashtiriladi.

Shuningdek, ish vaqtining besh kunlik ish vaqti rejimiga o‘tishi munosabati bilan xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomalariga mehnat qonunchiligi talablariga asosan tegishli o‘zgartirishlar kiritiladi.

8. Davlat tibbiyot muassasalarining boshqa davlat muassasalariga biriktirilgan tibbiyot xodimlariga ushbu biriktirilgan muassasalarning ish vaqti rejimi tatbiq etiladi.

9. O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash muassasalarida tug‘ilganlik haqidagi tibbiy ma‘lumotnoma, perinatal o‘lim va o‘lim haqidagi tibbiy guvohnomalarni berish tartibi to‘g‘risida yo‘riqnoma (ro‘yxat raqami 2089, 23.03.2010-yil) talablari asosida bayram va dam olish (yakshanba) kunlari uyda vafot etganlar uchun qonunchilikka muvofiq o‘lganlik haqidagi guvohnomalarni rasmiylashtirish uchun tibbiyot xodimlari jalb etiladi.

Bayram va dam olish (yakshanba) kunlarida ishga jalb etish ish beruvchining buyrug‘iga asosan amalga oshiriladi.

10. Bayram va dam olish kunlari navbatchilik shifo o‘rinlari mavjud (statsionar) tibbiyot muassasalarida qonunchilikka muvofiq amaldagi tunu-kun navbatchilik postlari doirasida tashkil etiladi.

11. Smenalik ish vaqti va navbatchilikni adolatli taqsimlash, ish vaqti me‘yorlariga rioya etish maqsadida smenalik ish vaqti va navbatchiliklar bo‘yicha tabellar bo‘limlar kesimida tasdiqlanadi.

Sog'liqni saqlash vazirining 2025-yil 15-avgustdagi "15 ta tajriba-sinov hududlaridagi 2-tipdagi oilaviy poliklinikalarda navbatchilik tashkil etish to'g'risida"gi 254-son buyrug'i hamda buyruq ilovasi bilan tasdiqlangan "Oilaviy poliklinikalarda tibbiyot xodimlarining navbatchiligini tashkil etish tartibi"ga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar

1. Sog'liqni saqlash vazirining 2025-yil 15-avgustdagi "15 ta tajriba-sinov hududlaridagi 2-tipdagi oilaviy poliklinikalarda navbatchilik tashkil etish to'g'risida"gi 254-son buyrug'ining 3-xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"15 ta tajriba-sinov hududlaridagi 2-tip oilaviy poliklinikalarda dushanba-juma kunlari 16-00 dan 20-00 gacha, bayram va dam olish kunlari 08-00 dan 14-00 gacha belgilangan tartibda ish haqi to'lanadigan bir nafardan shifokor va o'rta tibbiyot xodimidan iborat navbatchilik tashkil qilinsin."

2. Sog'liqni saqlash vazirining 2025-yil 15-avgustdagi "15 ta tajriba-sinov hududlaridagi 2-tipdagi oilaviy poliklinikalarda navbatchilik tashkil etish to'g'risida"gi 254-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oilaviy poliklinikalarda tibbiyot xodimlarining navbatchiligini tashkil etish tartibi":

a) 3-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"3. Navbatchilik haftaning dushanba-juma kunlari 16-00 dan 20-00 gacha, dam olish (shanba) 08-00 dan 14-00 gacha qadar tashkil etiladi."

b) 20-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"20. Bemorga shoshilinch va kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy yordam talab etilmaydigan hollarda har qanday rejali tibbiy ko'riklar, laborator va instrumental tekshiruvlar ish kunlari soat 8-00 dan 16-00 gacha amalga oshiriladi va bu haqida bemor yoki uning qarindoshlariga tushuntirish beriladi."